

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

*Nazarova Nigora Xurramovna*

*Surxondaryo viloyati Uzun tumani 54-umumiy o'rta ta'lif maktabi biologiya  
fani o'qituvchisi.*

### ANNOTATSIYA

Biologiya fanidan metodlarni qo'llashning samarali chiqishi o'qituvchiga ham o'quvchining imkoniyatiga ham bog'liq. Shunday metodlar borki ular bilan darsni qiziq o'tish bilan birga samaraga ham erishiladi. Aytib o'tilgan metodlar tajribalar natijasida tavsiya qilingan.

**Kalit so'zlar:** passiv o'qitish, faol metodlar, interfaol dars, juftlikda ishslash, guruhda muloqot qilish.

### KIRISH

Bizga ma'lumki, o'qitishning umumta'lif sohasida ko'pgina metodlar mavjud bo'lib, ular har xil dars turlarida qo'llanib yagona maqsadga , ya'ni o'quvchilarning bilim olishlariga qaratilgandir.Bu metodlarning diqqatga sazavor tomoni shundaki ,ular an'anaviy ta'lifni yangilayapti. Ta'lifni bunday metodlariga passiv, faol va interfaol o'qitish turlari kiradi.

Passiv o'qitishning o'ziga xos tomoni shundaki ,o'quvchilar materialni o'qituvchi yoki darslik matnidan bilib oladilar. O'zaro fikr almashmaydilar , ijodiy topshiriqlar bajarmaydilar. Bu model an'anaviy bo'lib , tez- tez qo'llaniladi. Shunga qaramay, zamonaviy dars tizimiga qo'yilgan talab – bu faol metodlarni qo'llash hisoblanadi.

Biologiya darsida faol metodlar bilish faoliyati va o'quvchilarni , o'quvchilarni mustaqil ishslashga yo'naltiragi.Bu model o'quvchi – o'qituvchi muloqoti .doimiy ijodiy (uy ishi ) topshiriqlaridan iborat.Biologiya darsida interfaol darsini tashkil etish hayotiy tajribaga asoslanib,, rolli o'yinlar ijro etish ,turli vaziyatlardan chiqish, topshiriqlarni ko'pchilik bo'lib hal etish , savollarga javob izlashga qaratiladi. Interfaol dars turi an'anaviy dars turidan keskin farq qilib ,o'qituvchidan pedagogik bilim ,mahorat va tajribani talab qiladi .Shuning uchun darsning tuzulishi faqat o'qitishning interfaol model elementlari – interfaol texnalogiya model elementlari-ya'ni aniq metod va usullardan iborat. Ular darsni ma'naviy va yanada qiziqarli , mazmunli bo'lishini ta'minlaydi . Holbuki, butun dars jarayonini interfaol dars qilib o'tkazish mumkin. Interfaol texnalogiyani o'zlashtirish jarayonida ( yangi mavzuni o'tib bo'lgach ) va bilimlarni qo'llash jarayonida, maxsus darslarda , so'rov jarayonida qo'llashi mumkin.

Juftlikda ishslash ta'lifning boshlang'ich qismida eng samarali hisoblanadi. Buning e'tiborli tomoni skundaki , barcha o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishi mumkin,

ya’ ni avval o’z sheriklari bilan , keyinchalik butun sinfi bilan faoliyat olib beradilar.Bundan tashqari o’quvchilar dars davomida faqat tinglovchi bo’lib qolmay, balki hamma darsga jalb qilinadi. Bunday ish turiga misol qilib quyidagilarni : matn muhokamasi ,sherigidan intervyu olish , sheringining bajargan labaratoriya ishini tahlil qilish, sinf o’quvchilari uchun savollarni tuzish , o’qituvchining savollariga javob qaytarish,,labaratoriyani tekshurish va boshqa ish turlarini kiritish mumkin.

Bunday ish turida o’quvchilarning faoliyati muhim bo’lib, ular uchlik shaklda birlashadilar. O’qitishning bu turi yangi materialni analiz va sintev qilish maqsadida o’tkaziladi .Buning uchun o’qituvchi va o’quvchilarni uchlik qilish doira hosil qilishi talab qilinadi.Har bir uchlikka savollar (hamma uchun savollar bir xil) beriladi , lekin ularning javoblari turlicha bo’lib , har bir o’quvchi galma – galdan javob berishi kerak bo’ladi . So’ng hamma o’quvchilarni aralash ,masalan, raqamlarni boshqa uchlikka o’tkazish yo’li bilan harakatlantirishi , shuningdek , turli savollar bilan murojaa .

Guruhsda muloqot qilishning yana bir usuli borki, u o’qitishning guruhda ishlashiga qaratilgan bo’lib boshqalarni o’z fikriga ishontirib , munozara olib borish bo’lib, “ikki , to’rt , barcha “ deb nomlanadi. Bu metod shundan iboratki, o’quchlilarga farazli vaziyat berilib 1, 2 daqiqada yakka javob va qaror qabul qilish topshiriladi .

Ta’limda yangiliklar ko’paymoqda. Aqlii qurilmalarni yaratish va joriy etish bizni maktablarda ham qo’llanilmoqda, masalan, aqlii qo’ng’iroq va xona haroratini o’lchovchi turli datchiklar yaratilgan. Bundan tashqari, yer qimirlashini aniqlash qurilmasi, fotoelektrik konverter qurilmasi, termoelektrik konverter qurilmasiga bog’liq holda zamonaviy ta’lim xonalarini yaratishimiz mumkin. Ma’lumotli saqlashda esa bulutli texnologiyalarini qo’llash juda foydali bo’lib qoldi.

O’quvchini darsda faolligi va diqqatini boshqa vaziyatlar olib o’tmasligi foydali bo’ladi hamda ta’lim sifati oshib boradi. Ushbu jarayonga biz quyidagicha taklif bermoqdamiz:

- ta’lim jarayonida o’quvchilarda tasavvur imkoniyati yetarli bo’lmaganligi uchun dars jarayoniga modellashtirish texnologiyalarini olib kirish;
- darslarda texnik qurilmalarni amaliy foydalanish imkonini bo’lmagan hollarda ishslash jarayonini virtual holda yaratish va natijani ko’rsatish;
- modellashtirilgan obyektlar asosida tahlilni olib borish;
- kimyoviy moddalar bilan ishslash jarayonida ularni ko’rsatishda;
- biologiya darslarida esa maketlar va jonli tabiatdan unumli foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda , ta’lim jarayonining qanchalik faol , qiziqarli va samarali bevosita o’qituvchi shaxsiga va hamda u o’qitayotgan o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalariga bog’liq. Shunday ekan biz har bir o’qituvchini ana shunday faol , izlanuvchan va o’z ishining natijasi bilan faxrlanuvchi, ijodkor o’qituvchilarning ko’payishini kutib qolamiz .

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.N.Alimxodjayeva, F.I.Haydarov, T.B.Samandarova, R.X.Valiyev “Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi”, Toshkent.; 2. Shoumarov G. Oila psixologiyasi . T. Sharq. 2001. B. 24-25.
2. Nishanova Z. O`smirlilik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. O`quv qo`llanma. T., Sharq. 2003. B. 25-26
3. Jumaboyeva M. Umumiy o`rta ta`limda kasbga yo‘naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni. Kurs ishi. Andijon qishloq xo‘jaligi instituti, 2014. — 21
4. Mardanov D. Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.
5. S.N.Alimxodjayeva, F.I.Haydarov, T.B.Samandarova, R.X.Valiyev “Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi”, Toshkent.; 2010 yil, 4-7 betlar
6. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.
7. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. Scientific progress, 2(8), 911-913.
8. Минаматов, Ю. (2021). УМНЫЕ УСТРОЙСТВА И ПРОЦЕССЫ В ИХ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭКСПЛУАТАЦИИ. Eurasian Journal of Academic Research, 9. 1(9), 875-879.
9. Mamadalieva, L. K., & Minamatov, Y. E. (2021). High Efficiency of a Photoelectric Converter in a Combined Design with a Thermoelectric Converter. Middle European Scientific Bulletin, 19, 178-186.
10. Kamiljanovna, M. L. (2021). Analysis of the Results of the Study of the Thermoelectric Part of the Source Sensor. Middle European Scientific Bulletin, 19, 191196.
11. G‘ofurovich, T. X. A., & Esonali o‘g‘li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(2), 9-13.
12. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. Scientific progress, 3(4), 738-740.
13. Avazjon o‘g‘li V. D., Esonali o‘g‘li M. Y. Use and Importance of ThreeDimensional Images in Fields //Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 1-4.
14. Avazjon o‘g‘li, V. D., & Esonali o‘g‘li, M. Y. (2022). Prospects for the Development of the 3D Modeling Process. Texas Journal of Engineering and Technology, 7, 78-79.

- 16.Komiljonovna, M. L., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Adjuster Synthesizing for the Heat Process with Matlab. Texas Journal of Engineering and Technology, 7, 63-66.
- 17.Okhunov Dilshod Mamatzhonovich, Okhunov Mamatjon Khamidovich, & Minamatov Yusupali Esonali o'g'li. (2022). DIGITAL ECONOMY: ESSENCE, FEATURES AND STAGES OF DEVELOPMENT. Academicia Globe: Inderscience
- 18.Research, 3(04), 355–359. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/MFNWD>